

MA'ONIY VA BAYON IMLARI MAZMUNI

Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi

Oriental universiteti professori

filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada balog'at ilmining ma'oniy va bayon kabi tarkibiy qismlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Unda ma'oniy ilmining kalom semantikasi bilan bog'liq masalalarini o'rghanishi va bayon ilmida ma'no ko'chishi bilan bog'liq hodisalarga e'tibor qaratilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: balog'at, kalom, so'zlovchi, holat, ma'no, ma'oniy, bayon.

Ma'no muammolarini hal etish til va borliq o'rtasidagi aloqani, tilning inson tafakkuri jarayonidagi o'rni va rang-barang vazifalarini, shaxs ruhiyatini nutqda aks ettirish yo'llarini o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan tafakkur va nutqning murakkab jihatlarini oydinlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ma'no masalalarining uslubiy, nazariy va amaliy ahamiyati tilni ma'no jihatdan tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatadi. Balog'at ilmining ma'oniy va bayon bo'limlarida ana shu ma'no bilan bog'liq dolzARB masalalar o'z aksini topgan.

Xususan, «ma'oniy xorijdagi, ya'ni ongdan tashqaridagi hodisalarga aloqador bo'lgani uchun o'z mavzuini qaziyya deb ataydi. Sarfu nahvda buning muodili jumladir. Ammo jumlaning voqelikka aloqasi yo'q. Shuning uchun bunga alohida ilm sarfu nahv ijod qilingan» [6:39].

«Qaziyya» so'zining masala, muammo; ish, da'vo, jarayon; teorema; holat, asosiy fikr; tezis; asos bo'la oladigan hukm (mantiqda) ma'nolari bor. Ma'oniy ilmida ularning so'nggisi bo'lgan «hukm» ma'nosida qo'llanadi.

Arab balog'atshunoslari ma'oniy tarkibiga kalomning xabar va insho turlari, qasr, fasl va vasl, iyjoz, itnob, musovot masalalarini kiritadilar.

Ma'oniy ilmiga shunday ta'rif beriladi: ma'oniy ilmi kalomni vaziyat talab qilgan holatga moslashtirish usul va qoidalarini o'rghanadi [1:5].

Ma'oniy ilmida kalom so'zlovchining maqsadi va tinglovchining holatiga ko'ra tasnif qilinadi. Demak, o'rta asr filologlari ma'lumotni nutq orqali uzatish va uni qabul qilish jarayoni muvaffaqiyatli kechishi uchun ma'lumot uzatuvchining maqsadi va ma'lumot qabul qiluvchining holatini e'tiborga olish muhimligini ko'rsatib bergenlar. Bu ilmda ma'no ifodasi mana shu ikki taraf holatiga asoslangan.

Ma'oniy ilmiga ko'ra so'zlovchi kalom tuzishda tinglovchining aytildigan narsadan xabardor yoki xabarsiz ekanidan tashqari uning boshqa, ya'ni zukkolik yoki tez fahmlay olmaslik kabi xislatlarini ham e'tiborga olishi lozim. Shunda u ma'lumotni yetkazash uchun ma'noni ta'bir qilishda tinglovchining holatidan kelib chiqib lo'nda, me'yorida va batafsil ifoda turlaridan birini tanlaydi [5]. Bu ifoda nutqda kalom shaklida namoyon bo'ladi.

Kalomning o’lchami tanlangan ifoda turiga mos ravishda – lo’nda ifoda uchun qisqa kalom, batafsil ifoda uchun cho’ziq kalom, me’yordagi ifoda uchun o’rtacha kalom bo’lishi talab qilinadi. Kalomning o’lchami undagi nutqiy belgilar soniga bog’liq ravishda kam, o’rtacha, ko’p bo’ladi. Bundan ma’oniylar ilmida ma’no va uni ifoda etgan kalom o’lchami o’zaro uch xil nisbatga ega ekani ko’rsatib berilgani ma’lum bo’ladi. Bu nisbat orqali badiiyatda ijoz, itnob, musovot deb nomlangan san’atlar hosil qilinadi.

Ma’oniylar ilmida kalom so’zlovchining maqsadiga ko’ra xabar va insho turlarga ajratib o’rganiladi. Insho gaplar buyruq, ta’qiq, so’roq, inkor va undov turlarga bo’lingan va kalom bo’laklarining gapdagi vazifasi, o’rni, ishtiroki, tushib qolishi, ma’noga ta’siri va boshqa grammatik xususiyatlari ham yoritilgan. Kalomning bunday tasnif asosida o’rganilishi ma’oniylar ilmida ma’noni aniq ifodalashda zarur bo’lgan shartlardan biri – kalomning tarkibiy qismlarini to’g’ri joylashtirish muhim masala ekani, shuning uchun uni grammatik jihatdan maqsadga mos ravishda to’g’ri shakllantirishga doir qonun-qoidalar o’z ifodasini topganini ko’rsatadi. Ta’kidlash joizki, balog’at ilmining ma’oniylar bo’limida yoritilgan bu masalalar zamonaviy tilshunoslikda grammatikaning sintaksis bo’limida gapni mazmuniga ko’ra darak, so’roq, buyruq va undov turlarga tasniflash asosida o’rganiladi [7:99].

Ma’oniylar ilmi o’z ichiga kalomning xabar va inshoga bo’linishi, insho va uning qismlari, musnad ilayhining holatlari, musnadning holatlari, itloq va taqyid (qayd etmaslik va qayd etish), fe’lga taalluqlilarning holatlari, qasr (xoslash) haqida, fasl (bog’lash) va vasl (ajratish) haqida hamda ijoz, itnob va musovot haqidagi nazariy qarashlarni qamrab olgan. Bularidan ma’lum bo’ladiki, ma’oniylar ilmi kalom semantikasi bilan bog’liq masalalarni o’rganadi.

O’rta asr islom allomalari asarlarida «bayon» bu balog’atning ajralmas qismi sifatida fikrni ochiq-oydin, aniq ifodalash degan xulosaga kelingan. Ayrim mutaxassislarining fikricha «bayon» va «balog’at» so’zlarini aynan bir ma’noda qo’llash ham mumkin [2:981-982]. Ya’ni ikkala istiloh ham musulmon sharqi ilmlar tasnifida nutq odobi va san’atining eng yuqori darajasi, fasohat va kamolot cho’qqisiga ko’tarilgan holati sifatida ham qaralgan. Shunday bo’lsa-da, G.I. Grenbaum ushbu ikki istilohga baho berar ekan «bayon» ma’no jihatidan «balog’at» istilohidan kengroq tushunchadir degan fikrni ilgari suradi [3:114-116].

Tadqiqotchilarning fikricha, arab tili arab xalifaligi o’lkalarida umumiyl davlat va ilm-fan tiliga aylanayotgan ilk davrlarda bayon aforizmni ifodalash vositasi bo’lib ham xizmat qilgan. Masalan, Sahl ibn Horun Shu’ubiy (v.e. 215/830-831 y.) bayonga «bilimlar tarjimoni» deya baho bergen edi.

«Bayon» so’zining lug’aviy ma’nosini «kashf qilish, yaratish, yoritish, izohlash»dir. Istilohda: istalgan bir ma’noni bir-biridan farq qiluvchi turli yo’llar orqali yoritib berish, o’sha ma’noning o’ziga bog’liq belgini aniqlash uchun kerak bo’ladigan usul va qoidalar tushuniladi. Masalan, Hotamning saxiyligini «saxiy», «kuli bisyor», «ozg’in bo’taloq», «qo’rkoq it», «qurib qolmaydigan dengiz», «yomg’irli bulut» kabi saxiylik ma’nosiga ochiq yoki yashirin dalolat qiluvchi turli lafzlar bilan ifodalash mumkin [4:269-270].

Ta’riflarda keltirilgan «bir ma’no» shuki, bu ma’no holat taqozosiga ko’ra butun kalom orqali ifodalanadi. Bayon ilmida, masalan, sher ma’nosini «asad», «lays», «sab’», «zirg’om»

kabi ma'nodoshlari orqali ifoda etilsa, bu bayon darajasida bo'lmashligi, chunki mutarodif, ya'ni sinonimlar bayon ilmida emas lug'at ilmi (leksika)da o'r ganilishi ta'kidlangan.

Bayonning tarkibiga tashbih, majoz, istiora, kinoya kiradi. Bayon ilmini ko'p olimlar tashbih, majoz (al-majozu-l-ma'noviy, almajozu-l-lug'aviy, uning tarkibida istiora) va kinoya; ayrimlari tashbih, istiora, majoz mursal va kinoya tarzida tasniflaydilar.

Ma'oniy va bayon ilmlari balog'at ilmining tarkibiy qismlari bo'lib, ularni o'r ganish sharq mumtoz asarlar mazmunini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Awni, Hamid. (1954) Al-minhaj al-wadih li-l-balag'a. Dar al-kitab al-arabiy bi-Misr.
2. Cahen CL. (1968) Balagha // The Encyclopaedia of Islam. Volume I. A-B. – LEIDEN, E. J.Brill. – P.981-982.
3. Grunbaum G.E. (1986) Bayan // The Encyclopaedia of Islam. Volume I. A-B. – Leiden: E.J.Brill.
4. Hoshimiyy, Ahmad. (2004) Jawahir fi al-ma'ani wa al-bayan wa al-baadi'. Bayrut-Lubnan.
5. Rustamiy, S. (2019). On significance of science of balāğat in achieving linguisticaesthetic perfection. The Light of Islam, 2019(4), 14.
6. Rustamiy A. (2014) Hazrat-i Navoyiyning ma'naviy olami. – Toshkent: Navro'z.
7. O'zbek tili grammatikasi. (1976) (Mas'ul muharrir: Abdurahmonov G'.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh. va b.). II tom. – Toshkent: Fan.